



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 1-yanvar, № 1 (9172)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI



Qadrlri vatandoshlarim!

Siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni kirib kelayotgan yangi 2026-yil bilan chin yurakdan muborakbod etaman.

O'tib borayotgan yil xalqimiz hayotida katta o'zgarishlar, ertangi kunga mustahkam ishonch va ulkan natijalar yili bo'ldi.

Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, biz o'z oldimizga qo'ygan barcha maqsad va marralarga erishdik. O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi ilk bor 145 milliard dollardan oshdi va mamlakatimiz o'rta daromadli davlatlar qatoridagi o'rini mustahkamladi.

Iqtisodiy o'sish samarasi odamlarimiz hayotida, oilalar daromadida, mahallalar qiyofasida, yoshlarimizning kelajakka bo'lgan ishonchida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'tayotgan yilda har bir oila, har bir xonadonda xursandchiliklar, baxtli onlar ko'p bo'ldi.

Yangi uyga ko'chib kirgan, o'z biznesini yo'lga qo'ygan yoki kengaytirgan, daromadi oshgan, ilm-fan, sport, madaniyat va boshqa sohalarda o'zi yoki farzandlarining yutuqlaridan quvongan millionlab oilalarning shodligi 2026-yildagi maqsadlarimizga erishish yo'lida bizga albatta katta kuch beradi.

Aziz yurtdoshlarim!

Biz kelgusi yilda ham har bir oilaning baxtli, farovon va sog'lom hayot kechirishi, yoshlarimizning sifatli ta'lim olishlari, kelajak kasblarini egallashlari va sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun yangi-yangi imkoniyatlarni ishga solamiz!

Biz 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili", deb e'lon qildik.

Yangi yilda minglab mahallalar infratuzilmasini yaxshilab, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kiramiz.

Barcha iqtisodiyot tarmoqlarini texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazamiz. Xalqimizning daromadi va xarid qobiliyatini oshirish ishlarini yanada jadallastiramiz.

Aholining yordamga muhtoj qatlamlari, muhtaram keksalarimiz, qadrlri xotin-qizlar va navqiron yoshlarimizni qo'llab-quvvatlashni kengaytiramiz.

Ekologiyani yaxshilash, "yashil" energetikani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha ta'sirchan choralarni davom ettiramiz.

Bir so'z bilan aytganda, yangi 2026-yilda ham barcha islohotlarimiz, sa'y-harakatlarimiz odamlarimiz yaxshi yashashi va biznes uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga qaratiladi.

Tajribali mahalla raislari va faollari, ziyolilar, tadbirkorlarimiz, serg'ayrat yoshlarimiz, keng jamoatchiligimiz, har bir vatandoshimiz ushbu oliyanob ishlarga munosib hissa qo'shadi deb ishonaman!

Aziz vatandoshlarim!

Yangi yil arafasida har bir oila yaxshi niyatlar qiladi, har bir inson qalbida yorqin orzu-umidlar jo'sh uradi.

Har birimizning pok niyatlarimiz, ezgu maqsadlarimiz 2026-yilda albatta amalga ohsin!

Yangi yil har bir oilaga sihat-salomatlik, baxt-saodat, qut-baraka, yurtimizga yuksak taraqqiyot, tinchlik-xotirjamlik olib kelsin!

Yaratgan Parvardigor Vatanimizni asrasin, xalqimiz hayotini yanada yaxshilash yo'lidagi ishlarimizda madadkor bo'lsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin, azizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SAMIMIY QUTLOVLAR

Kirib kelayotgan yangi 2026-yil munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar, parlamentlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, yetakchi moliyaviy institutlar rahbarlari, taniqli siyosatchilar, jamoat va din arboblariidan samimiy tabrik va tilaklar kelmoqda.

Qutlovlarda Prezidentimiz rahbarligida Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli siyosiy yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga yuksak baho berilgan. Mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqei va nufuzi tobora mustahkamlanib borishiga xizmat

qilayotgan proaktiv, ochiq va pragmatik tashqi siyosatning samaralari alohida qayd etilgan.

Xorijiy hamkorlar O'zbekiston yetakchisi va ko'p millatli xalqiga yangi yilda tinchlik-osoyishtalik, baxt-saodat, farovonlik, katta muvaffaqiyatlar va ravnaq tilaklarini izhor etmoqda.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Yangi yil bayrami munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qiling.

O'tayotgan yil Rossiya – O'zbekiston aloqalari uchun juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Davlatlarimiz siyosiy, savdo-iqtisodiy, gumanitar va boshqa sohalarda, MDH, ShHT va boshqa ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

Moskva va Toshkent o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini do'st xalqlarimiz farovonligi, mintaqaviy va xalqaro miqyosda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash yo'lida bundan buyon ham har tomonlama rivojlantirishimizga ishonaman.

Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, oilangiz va yaqinlaringizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar, O'zbekistonning barcha fuqarolariga esa tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN,
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Kirib kelayotgan yangi 2026-yil munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qilgaysiz!

Sizga bitmas-tuganmas kuch-g'ayrat, oilaviy farovonlik va qardosh O'zbekiston xalqining ravnaqi yo'lidagi mas'uliyatli davlatchilik faoliyatingizda yangi zafarlar tilayman!

Qosim-Jomart TOQAYEV,
Qozog'iston Respublikasi Prezidenti



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Sizni kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan samimiy muborakbod etaman.

O'tgan yil Qirg'iziston – O'zbekiston munosabatlarining amaliy mazmunini yanada mustahkamlash va kengaytirish yili bo'ldi.

Ishonchga asoslangan siyosiy muloqotning yuqori

darajasi va erishilgan kelishuvlar ikki mamlakatning strategik sherikligini yangi bosqichga ko'tardi.

Ishonchim komilki, kelgusi yilda ham ko'p qirrali hamkortligimiz do'stlik va o'zaro ishonch asosida, qardosh xalqlarimizning tinchligi va bardavom farovonligini ta'minlashga qaratilgan holda muvaffaqiyatli rivojlanishda davom etadi.

Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sog'liq, davlat rahbari sifatidagi faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, qardosh o'zbek xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Sadir JAPAROV,
Qirg'iz Respublikasi Prezidenti



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Qadrlri Shavkat Miromonovich!

Sizni kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan chin qalbindan tabriklayman!

Shu munosabat bilan Sizga va Sizning yaqinlaringizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va farovonlik, birodar O'zbekiston Respublikasi xalqiga esa tinchlik, barqarorlik va yanada izchil taraqqiyot tilayman.

2025-yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari yuqori sur'atni saqlab qolgani hamda xalqlarimiz farovonligi yo'lida izchil rivojlanishga qaratilgan yangi qo'shma qadamlar bilan nishonlanganini mamnuniyat bilan ta'kidlash joiz.

Ishonchim komil, kirib kelayotgan 2026-yilda ham davlatlarimizning samarali hamkorligini yangi amaliy mazmun bilan boyitamiz.

Strategik sheriklik va ittifoqchilik ruhida ishonchli davlatlararo muloqotni davom ettirishdan mamnun bo'laman.

Hurmat bilan,

Emomali RAHMON,
Tojikiston Respublikasi Prezidenti



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Sizni kirib kelayotgan yangi 2026-yil bilan chin qalbindan tabriklayman! Xalqaro maydonda sheriklik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qilayotgan ezgu ishlaringizda Sizga sihat-salomatlik, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar tilayman. Yangi yil mamlakatingiz xalqiga farovonlik va ravnaq olib kelsin.

Hurmat bilan,

Serdar BERDIMUHAMEDOV,
Turkmaniston Prezidenti



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Janobi Oliylari!

Kirib kelayotgan yangi 2026-yil munosabati bilan samimiy tabriklarimni yo'llamoqdaman. Sizga chin dildan mustahkam sog'liq, farovonlik va baxt-saodat tilayman. Yangi yilda boshlagan barcha ishlaringiz muvaffaqiyatli bo'lsin!

Hurmat bilan,

Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV,
Turkman xalqining milliy yetakchisi,
Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Qadrlri qardoshim! Sizni va Siz orqali qardosh O'zbekiston xalqini kirib kelayotgan 2026-yil bilan samimiy tabriklab, eng ezgu tilaklarimni yo'llayman.

2025-yil Ozarbayjon – O'zbekiston munosabatlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim va muvaffaqiyatli yil bo'ldi va bu davrda ikki tomonlama kun tartibimiz unutilmas voqyealar ham bo'ldi. Yakuniga yetayotgan yilda Siz Ozarbayjon bilan davlat, ham ikki marta amaliy tashrif bilan keldingiz. Mening go'zal mamlakatingizga amaliy tashrifim, shuningdek, boshqa bir qator xalqaro tadbirlar doirasidagi ko'plab uchrashuvlar davlatlararo munosabatlarimizning yuqori darajadagi jadalligi va o'ziga xosligidan dalolat beradi. O'zaro qat'i'y ishonch va qo'llab-quvvatlashga asoslangan munosabatlarimiz kun sayin chuqurlashib, har tomonlama rivojlanib, yangi mazmun bilan boyib borayotganini ko'rishdan xursandman.

Ishonchim komilki, birgalikdagi izchil sa'y-harakatlarimiz tufayli qardosh xalqlarimiz irodasiga muvofiq 2026-yilda Ozarbayjon – O'zbekiston munosabatlari va ittifoqimiz yanada kengayadi va mustahkamlanadi.

Joriy yilda biz Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligini ham nishonladik.

Yangi yilda Sizga va oila a'zolaringizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat, mas'uliyatli va sharaflil davlatchilik faoliyatingizda muvaffaqiyatlar va yangi yutuqlar, qardosh O'zbekiston xalqiga esa doimiy tinchlik, farovonlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Ilhom ALIYEV,
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Yangi yil bayrami munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qiling.

2025-yil Belarus – O'zbekiston munosabatlariga sezilarli sur'at baxsh etgan, o'zaro manfaatli va samarali hamkorlikning yangi istiqbollarini ochgan yorqin voqyealarga boy bo'ldi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi samimiy do'stlik va ishonchli sheriklik xalqlarimiz farovonligi yo'lida bundan buyon ham mustahkamlanib borishiga ishonchim komil.

Hurmatli Shavkat Miromonovich, Sizga chin qalbdan mustahkam sog'liq, muvaffaqiyatlar va baxt-saodat, qardosh O'zbekistonga esa tinchlik, totuvlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Aleksandr LUKASHENKO,
Belarus Respublikasi Prezidenti



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

O'tayotgan yil bilan xayrlashar ekanmiz va yangi yilni kutib olar ekanmiz, Siz, Janobi Oliylariga eng samimiy tabriklarimni yo'llashga ijozat bergaysiz.

Yangi 2026-yil davom etayotgan ziddiyatlarni yengib o'tish va umumiy maqsadimiz – xalqlarimizning yanada tinch, barqaror va xavfsiz kelajagi sari intilish yo'lida muloqot va o'zaro anglashuvga asoslangan birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz va konstruktiv hamkorligimizni faollashtirishga bo'lgan qat'i'y intilishning timsoli bo'lsin.

Kelgusi yilda ikki tomonlama munosabatlarimiz mustahkamlanishiga, yanada yaqin hamkorlik rivojlanishiga va ikki do'st xalq farovonligi yo'lida sezilarli natijalarga erishilishiga umid qilaman.

Hurmatli Prezident janoblari, Sizga bo'lgan yuksak ehtiromimni hamda butun dunyo xalqlari uchun taraqqiyot va farovonlikka to'la yil bo'lishini tilab bildirgan samimiy istaklarimni qabul qilgaysiz.

Chuqur hurmat va ehtirom bilan.

Yangi yil muborak!

Abdulfattoh as-SISI,
Misr Arab Respublikasi Prezidenti

SAMIMIY QUTLOVLAR



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Kirib kelayotgan yangi 2026-yil munosabati bilan Siz, Janobi Oliylarini hamda mamlakatingiz xalqini chin qalbimdan muborakkod etaman.

Umid qilamanki, kelgusi yilda birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz bilan tinch-totuv yashash va adolatli hamkorlik tamoyillariga tayangan holda bugungi notinch dunyoda tinchlik va barqarorlikni qaror toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yarata olamiz.

Siz, Janobi Oliylariga mustahkam sog'liq va ulkan muvaffaqiyatlar, O'zbekiston Respublikasi xalqiga esa baxt-saodat, farovonlik va ravnaq tilayman.

Mas'ud PEZESHKIYON,
Eron Islom Respublikasi Prezidenti



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Muhtaram Prezident Janoblari!

Yangi yil kirib kelishi munosabati bilan Sizga va oila a'zolaringizga mustahkam sog'liq, mazmunli va fayzli yangi yil tilab, o'zinning samimiy istaklarimni yo'llayman.

Umid qilamanki, birgalikdagi ishonch va qat'iyatga asoslangan sa'y-harakatlarimiz bilan xavfsiz va tinch kelajak yo'lida oldimizda turgan vazifalarni amalga oshira olamiz.

Hurmat bilan,

Fridrix MERS,
Germaniya Federativ Respublikasi Federal kansleri



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Hurmatli Prezident Janoblari!

Kirib kelayotgan yangi yil munosabati bilan Polsha xalqi va shaxsan o'z nomimdan Sizga va O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga eng samimiy tilaklarimni yo'llamoqchiman.

2026-yil dunyodagi mojarolarga barham berib, tinchlik, barqarorlik va totuvlik davri bo'lsin.

Sizga bo'lgan yuksak hurmat-ehtiromim va eng ezgu tilaklarimni qabul qilishingizni so'rayman.

Hurmat bilan,

Karol NAVROSKIY,
Polsha Respublikasi Prezidenti



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

O'tgan yili bo'lib o'tgan mamlakatlarimiz o'rtasida mustahkam do'stlik va hamkorlik rishtalariga asoslangan almashinuvlar uchun chuqur minnatdorlik bildiraman.

Umid qilamanki, 2026-yilda do'stligimiz yanada mustahkamlanib, hamkorligimiz yanada kengayadi.

Shuningdek, mamlakatlarimiz bundan buyon ham tinchlik va farovonlik yo'lida global miqyosda samarali hamkorlik qilishiga ishonch bildiraman.

Sizga bardavom muvaffaqiyatlar, mamlakatingizga esa barqaror taraqqiyot va yanada yuksalish tilayman.

Kirib kelayotgan yangi yil munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qilgaysiz.

Li Chje MYON,
Koreya Respublikasi Prezidenti



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu.

Milodiy yangi 2026-yil kirib kelishi munosabati bilan Sizga, Janobi Oliylariga, samimiy tabriklarim va ezgu tilaklarimni bildirishdan bag'oyat mamnunman.

Ushbu yangi yil butun insoniyat uchun xayrli bo'lib, xavfsizlik va tinchlik hukm surishi, butun dunyo xalqlariga farovonlik olib kelishini tilayman.

Siz, Janobi Oliylariga, mustahkam sihat-salomatlik, ikki do'st davlatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalar yanada rivojlanishini tilab qolaman.

Janobi Oliylari, yuksak ehtiromimni qabul qilgaysiz.

Shayx Mish'al al-Ahmad al-Jobir as-SABOH,
Kuvayt Davlati Amiri

Shuningdek, quyidagilar o'z tabriklarini yo'llagan:

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin;

Qozog'iston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev;

Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta;

Germaniya Federativ Respublikasi Federal prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer;

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi Bosh vaziri Kir Starmer;

Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella;

Ispaniya Qiroli Filipp VI;

Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musar;

Vengriya Prezidenti Tomash Shuyok;

Latviya Respublikasi Prezidenti Edgars Rinkevichs;

Litva Respublikasi Prezidenti Gitanas Nauseda;

Xorvatiya Respublikasi Prezidenti Zoran Milanovich;

Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon;

Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi;

Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti Abdulmajid Tebbun;

Falastin Davlati Prezidenti Mahmud Abbos;

Myanma Ittifoqi Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Min Aun Xlayn;

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay Amirligi hokimi Shayx Muhammad bin Roshid al-Maktum;

O'mon Sultonligi Bosh vaziri o'rinbosari Fahad al-Said;

Singapur Respublikasi Bosh vaziri Li Syan Lun;

Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Nurlan Yermekbayev;

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bosh kotibi Sergey Lebedev;

Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev;

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Asad Xon;

BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, BMTning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Xaxa Imnadze;

Jahon banki prezidenti Ajay Banga;

Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi prezidenti Janni Infantino.

Qutlovlar kelishi davom etmoqda.

Aks sado

ISLOHOTLAR IZCHILLIGI VA IJTIMOY MAS'ULIYAT – OYDIN KELAJAK POYDEVORI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasini ushbu nufuzli tadbir o'tkazilgan zalda to'g'ridan-to'g'ri tinglash baxtiga muayassar bo'lganim qalbidagi hayajonni yuz chandon oshirdi. Anjumanda ishtirokchilar kayfiyati, muhit shu qadar ko'tarinki ediki, olgan taassurotlarimiz xotiramizga bir umrga muhrlandi, desak, mubolag'a emas.



Murojaatnomada davlatimiz rahbari tomonidan o'tgan to'qqiz yilda erishilgan natijalar chuqur tahlil qilinib, kelgusida mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning strategik vazifalari belgilab berildi.

2026-yil yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilindi. Bu davlat siyosatining markaziga inson, uning kundalik hayoti va jamiyadagi o'rni qo'yilayotganini anglatadi.

Murojaatnomada olitta ustuvor yo'nalish belgilandi. Shulardan biri – iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish. Bugungi kunda "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ (OKMK)da zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, yangi konlarni o'zlashtirish va quvvatlarni modernizatsiyalash bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar nafaqat mahsulot hajmini kengaytirish, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, energiya samaradorligini yaxshilash va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Biznes va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, boshqaruv va operatsion sohani optimallashtirish doirasida o'tgan yilning o'zida 20 ta loyiha ishga tushirildi. Shuningdek, Prezidentimizning 2025-yil 16-sentabrdagi qarori doirasida yana 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari kombinatning ishlab chiqarish jarayonlarida ham joriy etilmoqda. Xususan, "Qalmoqqir" va "Yoshlik-1" konlarida kon-transport boshqaruv tizimi ishga tushirildi. Natijada ma'lumotlarni onlayn jamlash, qayta ishlash yo'lga qo'yildi. "Yoshlik-1" konida "ekskavator-avtosamosval" operativ boshqaruv tizimi ishga tushirilib, avtomatik ravishda avtosamosvallar ekskavatorlarga taqsimlanmoqda. Ma'dan o'lchamlarini, ekskavator kovshining tishlarini nazorat qilish hamda haydovchilarning charchoqlarini kuzatish sun'iy intellekt zimmasiga yuklandi.

Ma'danni boyitish jarayonida videotahlilga asoslangan "Mashina ko'z nazorati" pilot loyihasi sinovdan o'tmoqda.

Mis boyitish fabrikasida "ma'dan – suv" nisbatlarini avtomatlashtirish maqsadida nazorat va o'lchov

"Murojaatnomada ta'kidlanganidek, OKMKda qiymati 2 mlrd. 700 mln. dollar, quvvati 300 ming tonna mis katodidan iborat bo'lgan yangi metallurgiya majmuasini barpo etish ishlari boshlanadi. Ushbu strategik loyihamiz amalga oshirilishi natijasida kombinatda mis ishlab chiqarish 148,5 ming tonnadan 300 ming tonna quvvatgacha yetadi. Yangi metallurgiya majmuasida "Flash Smelting" va "Flash Converting" texnologiyalari asosida ishlaydigan zamonaviy pechlar joriy etiladi.

javonlari o'rnatildi. Flotatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish uchun "U-flotation" intellektual tizimiga o'tilmoqda, u real vaqtda kechinmalarni tahlil etib, boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yo'qotish va xarajatlarni kamaytiradi. Mis boyitish fabrikasida qo'shimcha 3 ta konsentrator o'rnatilishi tufayli foydali komponentlarni ma'dandan ajratib olish darajasi 1 – 3 foizga oshirildi. 2-mis boyitish fabrikasida maydalash-yuvish uchastkasi uskunalarining sozlanishi natijasida avariyaaviy to'xtashlar 30 foizga kamayadi. Mis eritish zavodida avtomatlashtirilgan axborot tizimi tayyor mahsulotni yuklashni nazorat qiladi.

Sulfat kislotasi sexining kislota ombori va metallurgiya sexining maydalash-shixtalash bo'limi nazorati avtomatlashgan dispatcherlik tizimi orqali onlayn tarzda olib borilmoqda. Metallurgiya sexi pechlariga yuklanuvchi shixta

tarkibining kimyoviy va ekspress tahlil natijalarini elektron tarzda to'ldirish yo'lga qo'yilgani bois qog'ozbozlik 50 foizga qisqartirildi.

Ilg'or texnologiyalarni jalb etishda xalqaro tashkilotlar, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik ham dolzarb. Hozirda AQSh va Yevropa mamlakatlari kompaniyalari bilan qo'shma loyihalarni kengaytirish, zamonaviy texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish orqali milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish masalalari ko'rib chiqilmoqda.

Yana bir ustuvor yo'nalish – ichki bozorda talabni rag'batlantirish. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, qulay biznes muhiti yaratilishi, ish o'rinlarining ko'payishi, mahsulotlar turi oshishi xalqimizning daromadi va farovonligi yuksalishiga xizmat qiladi.

Sanoat kooperatsiyasi doirasida OKMK tomonidan Angren shahridagi Birinchi rezina texnika zavodi, Toshkent shahridagi "Apiteks",

ishlarni yanada jadallashtirish deb hisoblaymiz.

Navbatdagi yo'nalish – ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish. Bu yo'nalish kombinat uchun juda dolzarb. 2025-yilda mis boyitish fabrikalarida havoni chang, gaz va boshqa sanoat chiqindilaridan tozalashga mo'ljallangan aspiratsiya tizimlari to'liq rekonstruksiya qilindi. Shuningdek, asosiy va yordamchi obyektlardagi 30 ta tizim mukammal va 130 ta eskirgan ventilyatsiya-aspiratsiya qurilmalari joriy ta'mirlandi. Natijada ularning ish samaradorligi 99,5 foizga yetkazildi.

Mis eritish zavodining sulfat kislota sexida chiqindilarni avtomatik tahlil qilish va monitoring yuritish uskunalari o'rnatilib, respublika bo'yicha yagona tizimga integratsiyalandi. Shuningdek, Rux zavodida 180 ming tonna quvvatga ega yangi sulfat kislotasi sexini qurish yakunlanmoqda. Sex ishga tushirilgach oltingugurt gazi atmosferaga chiqarilmasdan to'liq ushlab qolinadi.

Murojaatnomada ta'kidlanganidek, OKMKda qiymati 2 mlrd. 700 mln. dollar, quvvati 300 ming tonna mis katodidan iborat bo'lgan yangi metallurgiya majmuasini barpo etish ishlari boshlanadi. Ushbu strategik loyihamiz amalga oshirilishi natijasida kombinatda mis ishlab chiqarish 148,5 ming tonnadan 300 ming tonna quvvatgacha yetadi. Yangi metallurgiya majmuasida "Flash Smelting" va "Flash Converting" texnologiyalari asosida ishlaydigan zamonaviy pechlar joriy etiladi. Bu texnologiya tufayli chiqindi oltingugurt gazi to'liq ushlab qolinadi va qo'shimcha mahsulot – yiliga 1,8 mln. tonnagacha sulfat kislotasi olishga yo'naltiriladi.

"Yashil" energetikaga o'tish bo'yicha ham OKMKda qator ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda 80 dan ortiq maydonlarda umumiy quvvati 9 megavatt bo'lgan quyosh panellari ishlab turibdi. 2025-yilda ularda 7 mln. kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Murojaatnomada O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar muayyan barqaror bosqichga chiqqani, endi esa davlat siyosati sifat, samaradorlik va natijaga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Bu hujjatni mamlakatni modernizatsiyalash, iqtisodiy rivojlanishni ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish va davlat hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan muhim siyosiy bayonot sifatida qabul qilish mumkin.

Abdulla XURSANOV,
«Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ boshqaruv raisi,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI – ZAMON TALABI

Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2026-yilga mo'ljallangan 6 ta eng muhim ustuvor yo'nalish belgilab berildi. Ular orasida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish masalasi strategik vazifa sifatida qayd etildi. Ushbu yondashuv deputatlik korpusi tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi.



Jahonda raqobat tobora keskinlashib borayotgan bir paytda faqat xomashyo eksportiga tayanish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlab berolmaydi. Prezidentimiz tomonidan 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 mlrd. dollardan oshirish maqsadi qo'yilgan ekan, buni faqat yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish orqaligina amalga oshirish mumkin. Shu ma'noda, iqtisodiyotni texnologik yangilash va innovatsiyalarga tayanish – zamon talabi.

Murojaatnomada sanoat sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Belgilangan vazifalarning uddasidan chiqish maqsadida 2026-yilda 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start berilishi rejalashtirilmoqda. Shubhasiz, mazkur amaliy ishlar natijasida hududlarda aholi bandligini ta'minlash, kambag'al oilalar sonini qisqartirish, soliq bazasini kengaytirish orqali Davlat byudjeti daromadlarini oshirish kabi muhim strategik maqsadlarga erishiladi.

Shuningdek, sanoat tarmoqlarida sifat jihatdan tub o'zgarishlarni ta'minlash maqsadida "Unumdorlik va samaradorlikni ikki karra oshirish" dasturi joriy etilmoqda. Ushbu dastur doirasida mehnat unumdorligi hamda energiya samaradorligini ko'tarishga qaratilgan alohida loyiha amalga oshirildi. Bu, o'z navbatida, mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun yangi mohiyatli va texnologik imkoniyatlarni ochadi. Loyiha doirasida xorijiy yuqori malakali texnolog va mahandislarni jalb etish, ishlab chiqarish va biznes jarayonlarini raqamlashtirish, energiya hamda resurslar sarfini qisqartirishga qaratilgan chuqur texnologik va energetik auditlarni o'tkazish, ilg'or texnologiyalar transferini uddalash nazarda tutilgan. Mazkur chora-tadbirlar mamlakatimiz sanoat salohiyatini oshirib, mahsulotlar raqobatbardoshligini kuchaytirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Murojaatnomada belgilangan yana bir muhim tashabbus "To'rtinchi sanoat inqilobi markazi"ga asos solinishidir. Ushbu markaz robototexnika, internet buyumlari, "aqlii fabrika" kabi "Industry 4.0" yechimlarini sanoat korxonalariga tizimli joriy etishga

xizmat qiladi. Korxonalar yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga yo'naltirishdan oldin ularni sinovdan o'tkazish imkoniga ega bo'ladi. Bu kabi ilg'or va "smart" tashabbuslar kelgusida milliy iqtisodiyotimizning innovatsion rivojlanishida muhim drayver vazifasini bajarib, sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini tubdan oshiradi.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, xalqaro reytinglar

"Murojaatnomada sanoat sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Belgilangan vazifalarning uddasidan chiqish maqsadida 2026-yilda 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start berilishi rejalashtirilmoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning natijadorligini tasdiqlamoqda. "Harvard Growth Lab" tomonidan e'lon qilingan Iqtisodiy murakkablik indeksiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi besh yil ichida 25 pog'onaga ko'tarilib, 145 mamlakat orasida 80-o'rinni egalladi. Eksport hajmining yillik o'rtacha o'sishi 20,5 foizni, tayyor mahsulotlar eksporti esa 21,9 foizni tashkil etmoqda. Tahlillarga ko'ra, mamlakatimiz jahon bozorida raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lgan 162 turdagi mahsulot ishlab chiqarish salohiyatiga ega.

Shu bilan birga, "Global Innovation Index – 2025" natijalariga ko'ra, O'zbekiston mazkur reytingga kiritilgan 139 ta davlat orasida 79-o'rinni egalladi. Ushbu indeks mamlakatlarning innovatsion salohiyatini baholashga qaratilgan bo'lib, taxminan 80 ta ko'rsatkich asosida innovatsiyalarga kirish omillari va natijalari bo'yicha tuziladi. Ayni paytda O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidagi 10 ta

To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida O'zbekiston to'g'ri strategik yo'lni tanladi. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalarni to'liq amalga oshirishda parlament, ijro etuvchi organlar, xususiy sektor va jamoatchilikning hamijihat harakati muhim ahamiyatga ega. Biz, deputatlar ushbu islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, ular ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish va xalq manfaatlarini himoya qilish yo'lida bor kuchimizni safarbar etamiz.

Prognozlarga muvofiq, 2026-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati 6,4 foiz bo'lishi kutilyapti.

Shu bilan birga, "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonunga muvofiq, ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jumladan, ilmiy loyihalar uchun 526,3 mlrd. so'm, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish uchun 106,3 mlrd. so'm, yoshlar startaplariga qo'llab-quvvatlash hamda milliy venchur kapital tizimini rivojlantirish uchun salmoqli mablag'lar ajratilishi belgilangan.

Hududlardagi sanoat loyihalari mazkur siyosatning amaliy natijasidir. Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan "BYD Uzbekistan Factory", "ADM Jizzakh" korxonalari, shuningdek, Zomin texnoparkida "Midea" brendi ostida maishiy texnika ishlab chiqarish loyihalari iqtisodiyotimizning texnologik yangilanishini ta'minlamoqda. Ikkinchi bosqich doirasida xavfsizlik, tibbiyot va axborot texnologiyalari sohalarida yangi ishlab chiqarish quvvatlari shakllantirilmoqda.

Otabek MUSURMONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

ASOSIY QONUN USTUVORLIGI YOʻLIDA

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning majlisi boʻlib oʻtdi. Unda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Hukumat, sud-huquq tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, inson huquqlarini himoya qilish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, taʼlim va ilmiy tashkilotlar vakillari, shuningdek, Konstitutsiyaviy sud huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi aʼzolari qatnashdi.

Anjuman

Majlisda Konstitutsiyaviy sudning mamlakatda 2025-yildagi konstitutsiyaviy qonuniylik holati toʻgʻrisidagi axboroti koʻrib chiqildi. Axborotda Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan norma va prinsiplarni hayotga tatbiq etish, davlat hokimiyati faoliyatida Asosiy Qonun ustuvorligini taʼminlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar atroflicha tahlil etildi.

Taʼkidlanganidek, 2025-yil davomida mamlakatda qonuniylik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan

rivojlantirish boʻyicha hayotga tatbiq etilgan choralar ham koʻrsatib oʻtili.

Fuqarolarning erkin harakatlanish, taʼlim olish, mehnat qilish, davlat xizmatiga kirishda teng huquqlilikka oid konstitutsiyaviy huquqlarini taʼminlashga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Maʼmuriy va jinoyat-protsessual munosabatlarda insonparvarlik hamda mutanosiblik tamoyillariga asoslangan yondashuv qaror topdi.

Axborotda iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligini kafolatlash, halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish, uy-joy hamda ipoteka bozorini rivojlantirish,



islohotlar izchil davom ettirildi. Barcha davlat organlari faoliyatida Konstitutsiya normalarga amal qilish, qonun ijodkorligi va huquqni qoʻllash amaliyotida konstitutsiyaviy mezonlarga tayanish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Axborotda sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, odil sudlovni taʼminlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini sud orqali himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarga alohida eʼtibor qaratildi. Tergov sudyalari instituti faoliyatining kengayishi inson huquqlarini himoyalash kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qilgani qayd etildi.

Shuningdek, parlament va mahalliy vakillik organlarining konstitutsiyaviy maqomini mustahkamlash, qonunlar ijrosi ustidan taʼsirchan parlament nazoratini amalga oshirish, davlat organlarining hisobdorligini kuchaytirish masalalari axborotda oʻz aksini topdi. Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini

aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilgan ishlar ham yoritildi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni taʼminlash, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim yoʻnalish sifatida aytili. Maʼlum qilinishicha, 2025-yil davomida Konstitutsiyaviy sud tomonidan konstitutsiyaviy nazorat tartibida 81 ta qonun va 386 ta boshqa normativ-huquqiy hujjatning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi oʻrganildi. Bu konstitutsiyaviy nazorat institutining mamlakatda qonuniyligni taʼminlashdagi ahamiyati oshib borayotganini koʻrsatadi.

Muhokama yakunlariga koʻra, mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylik holati toʻgʻrisidagi axborot tasdiqlandi hamda uni belgilangan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga taqdim etish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi.

**Oʻzbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi.**

YILLAR ORALAB...

Bundan 35 yil muqaddam 1-yanvar kuni «Xalq soʻzi» va «Nardnoye slovo» gazetalarining ilk soni chop etilgan edi



berildi. Oʻzbek matbuoti mustaqillik davrida davlat va jamiyat oʻrtasida xolis vositachiga aylandi, milliylik kasb etdi. Xalqimizni oʻzlikni anglashga undadi, yangidan-yangi marralarga ruhlantirdi.

Bunda, albatta, "Xalq soʻzi" gazetasing ham oʻz oʻrni bor. Uning nishona soni 1990-yil 29-oktabrda chop etilgan boʻlsa, 1991-yilning 1-yanvaridan boshlab respublika qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati muassisligida muntazam nashr qilina boshlandi.

Butun dunyoda matbuotga jamiyatning yetakchi kuchi sifatida qaralishi sir emas. Turkistonda mustaqil milliy matbuot paydo boʻlgan davrdan boshlab, bu ishning boshida turgan maʼrifatparvar jadid bobolarimiz Vatan ozodligi yoʻlida xalqni uygʻotishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan edi. Jadidlar milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishda, xalqni maʼrifatli qilishda maʼnaviy jasorat koʻrsatdi.

Mustabid tuzum ularni shafqatsiz qatagʻon bilan "siyladi". Lekin umid soʻnmadi. Vatanimiz mustaqilligi eʼlon qilingach, Oʻzbekiston jurnalistikasi demokratik rivojlanish bosqichiga qadam qoʻydi. Mamlakat ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asosi yaratildi, matbuotda yangicha tafakkurga yoʻl ochib

Gazeta sahifalarida oddiy ishchidan tortib parlament aʼzolarigacha oʻz fikr-mulohazalarini bayon etishiga imkon berildi, u xalq minbariga aylandi. Gazetxonlarning taklif-mulohazalari, jamiyatdagi mavjud muammolar ochiq-oydin yoritilib borishi oʻquvchilar sonining muttasil oshishiga xizmat qildi. "Xalq soʻzi" gazetasi boshlab bergan yangicha yoʻnalishlardagi ijtimoiy fikr, oshkora tanqid, emin-erkin mushohadalar milliy matbuotimizning boshqa nashrlarini ham dadillikka undadi, ularda ham jamiyatning ogʻriqlari qalamga olina boshlandi. Jamiyatda fikrlar xilmaxilligi yuzaga keldi.

Gazetaning bunday xalq orasiga kirib borishida nashrning birinchi Bosh muharriri boʻlgan atqoli ijodkor Ahmadjon Muxtorovning xizmatlarini, albatta, eʼtirof etish kerak. U bilan birga koʻplab isteʼdodli jurnalistlar yillar davomida gazetaimizning qilchilligini taʼminlashga munosib hissa qoʻshdilar. Garchi oʻsha paytlarda hali mamlakatimiz oʻz mustaqilligini eʼlon qilmagan boʻlsa-da, "Xalq soʻzi" gazetasi jamoasi tobora

yemirilib borayotgan sobiq ittifoq talvasasini oʻz maqolalarida ochiq-oshkora yoritib bordi, xalqni oʻz haq-huquqlarini himoya etishga daʼvat qildi. Gazeta arasatda qolgan xalqimiz tafakkurini, ruhiy dunyosini, milliy shaxsiyatni tabiiy oʻzaniga qaytarishdek oliy maqsadni oʻz oldiga qoʻydi va buni uddaladi.

Mustaqillik yillarida gazeta sahifalarida ochiqlik va oshkoralik siyosatiga keng oʻrin berildi. Chop etilgan tahliliy maqolalarda yurtdoshlarimiz hayotida, jamiyatimizda yuz berayotgan jarayonlar, milliy tiklanish va bunyodkorlik ishlari oʻz ifodasini topdi.

Keyingi yillarda "Xalq soʻzi" va "Nardnoye slovo"ning mazmun-mundariyasi butunlay oʻzgarib, mamlakatimizda boshlangan tarixiy yangilanishlarning faol targʻibotchisi sifatida maydonga chiqdi. Nashrlarimiz avval ham, hozir ham oʻquvchilar mehrini turli shov-shuvlar, oldi-qochdi materiallar bilan emas, insonni fikr-mulohazaga chorlaydigan, uning maʼrifatini, maʼnaviy darajasini,

el-yurt taqdiriga daxldorligini oshiradigan tahliliy, salmoqli maqolalarni chop etish orqali



Akmal MUHAMMADOV oʻlgan surati

qozonishga harakat qilib kelmoqda.

Gazetalarimiz sahifalari orqali deputatlar va senatorlar, taniqli siyosatchilar, ziyolilar, turli soha vakillari, ekspert va mutaxassislar mamlakatimizda iqtisodiy oʻsishga qanday erishilayotgani, qaysi omillar siyosiy va ijtimoiy barqarorlik kafolati boʻlib xizmat qilayotgani haqida

oʻz tahliliy yondashuvlarini, teran mushohadalarini bayon etmoqda. Sahifalardan joy olayotgan materiallar odamlar tafakkurini, dunyoqarashini, ruhiyatini oʻzgartirishga, milliy gʻururini yuksaltirishga yoʻnaltirilgani bilan ahamiyatlidir.

Tahririyatda oʻziga xos jurnalistika maktabi shakllangan boʻlib, sohaga kirib kelayotgan yoshlar doimiy ravishda qoʻllab-quvvatlanmoqda. Gazetalar davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarni yoritish jarayonida yoʻlimizda toʻsiq boʻlib turgan illatlar – korruptsiya, mahalliychilik, nepotizm koʻrinishlariga qarshi maqolalarga keng oʻrin berib kelmoqda. Shu oʻrinda ijodimizga befarq boʻlmayotgan, gazetalarimizni muntazam oʻqib kelayotgan mustahkamlashga oʻzimizning samimiy minnatdorligimizni bildiramiz.

Shu bois davlatimiz rahbari milliy kontentni boyitish masalasini kun tartibiga qoʻymoqdaki, bu shu yurt taqdiriga oʻzini daxldor bilgan har bir kishini jonkuyarlikka undaydi. Xalqimiz bir tanu bir jon boʻlib, matbuot nashrlarini, tele va radiokanallarni, internet saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlarni milliy manfaatlarimizga javob beradigan maʼlumotlar, axborotlar, tahliliy materiallar bilan boyitishga hissa qoʻshishi lozim.

Shu maʼnoda, gazetalarimiz sahifalarida olimlar, ziyolilardan tortib oddiy xalq vakillarigacha oʻz fikr-mulohazalarini bildirishga imkon berilgan. Chop etilayotgan tahliliy maqolalar esa oʻquvchilarda mustaqil Vatanimizni asrab-avaylash, mamlakat taraqqiyoti yoʻlida fidoyilik koʻrsatish, ijtimoiy-siyosiy bilimlarini boyitish, dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Yoshlarni oʻstrib dushmanidan, oqni qoradan ajratishga, doim ogoh va hushyor yashashga undamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yaqinda parlamentga va xalqimizga yoʻllagan Murojaatnomasida yurtimizdagi keng koʻlamli yangilanishlar davrida ochiqlik siyosatidan heych qachon ortga qaytmagligimizni, soʻz va matbuot erkinligini taʼminlash ustuvor vazifamiz boʻlib qolishini alohida taʼkidlab oʻtdi. Demak, oʻz yoʻlimizda sobitlik bilan oldinga qarab olgʻa intilaveramiz. Oshkoralik va soʻz erkinligi davr talabigina emas, Oʻzbekistondagi islohotlarning yuzi, tayanchi va suyanchidir.

Tahririyatimiz jamoasi bundan keyin ham davr bilan hamnafas boʻlib, gazetalar sahifalarida yurtimizda yuz berayotgan ijobiy oʻzgarishlarni muntazam yoritib boradi, jamiyatdagi oʻtkir muammolarni dadil koʻtarib chiqishda davom etadi. Shu orqali jamoatchilik fikrini uygʻotishga va shakllantirishga hissa qoʻshaveradi.

Tahririyat.

IJODKORLIK MASʼULIYATI

Tahririyatga ishga kelgan paytlarimni yaxshi eslayman. Bu yerga malakali jurnalistlar taklif qilingan, ular orasida iqtidorli va mahoratli yoshlar koʻp edi. Shu bois gazeta faoliyatini tegishli yoʻnalishga solish ancha oson kechdi. Ilk sonlaridanoq uning sahifalarida dolzarb mavzulardagi tahliliy-tanqidiy maqolalar koʻp oʻrin ola boshladi.

Dil soʻzi

Mana, 35 yilki gazeta xalq xizmatida. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yoʻlida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimizga yetkazib kelmoqda. Bu chiqishlar, tabiiyki, jamoatchilik eʼtirofiga sazovor boʻlayotir.

Ayniqsa, keyingi yillarda mavzularning

qamrovi kengayib, materiallarning taʼsirchanligi oshganini alohida taʼkidlashni istardim. Bu yutuq va muvaffaqiyatlar butun hayoti hamda mehnat faoliyati ana shu dargoh bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan mendek inson uchun nihoyatda quvonchlidir. Men oldilariga qoʻyilgan yuksak vazifalarni ado etishda "Xalq soʻzi" jamoasi ijodiy izlanishdan aslo toʻxtamasligiga ishonaman.

Salohiddin MUHIDDINOV,
faxriy jurnalist.

HAM KASBIY, HAM HAYOTIY TAJIRIBA ORTTIRDIM

Jurnalistlik faoliyatimning asosiy qismi "Xalq soʻzi" gazetasi tahririyatida oʻtdi. Oʻtgan yillar davomida bu nashr mening hayotimga, taqdirimga aylandi. Koʻplab ustozlar bilan bir safda ishlash baxtiga muyassar boʻldim. Bu yerda oʻzbek jurnalistikasi dargʻalaridan ham kasbiy, ham hayotiy saboqlar oldim. Va asosiysi, ustozlardan soʻz qudratini his qilishni oʻrgandim.

Iftixor

Har bir jurnalistga mush-tariylarning "Maqolangizni oʻqidim, rahmat" yoki "Tahririyat aralashuvi sabab muammo ijobiy yechim topdi", degan

minnatdorlik soʻzlarini eshitish oʻz kasbidan faxrlanish tuygʻusini baxsh etadi, uni yangi ijodiy ishlarga ragʻbatlantiradi. Shu maʼnoda aytсам, men mazkur kasbni tanlab adashmadim. "Xalq soʻzi" va "Nardnoye slovo" gazetalaridagi har bir xodim

– u xoh yosh boʻlsin, xoh tajribali jurnalist, qaysidir maʼnoda men uchun ustoz.

Gazeta har kuni chop etiladi. Ustozlarimizdan birining taʼbiri bilan aytganda, mana shu "Bir kunlik moʻjiza" taraqqiyot sari qoʻyilayotgan har bir qadamni, jonajon Oʻzbekistonimizning jahon hamjamiyatida yuksalib borayotgan oʻrni va mavqei ni kasb etiradi. Oddiy qalamkash sifatida ana shu ulkan tarixiy jarayonlarda ishtirok etayotganimdan baxtiyorman.

Mavjuda XOLMATOVA
(«Xalq soʻzi»).

FAROVONLIKNI TAʼMINLAYDIGAN NEʼMAT

Undan oqilona foydalanish zimmamizdagi eng muhim vazifadir

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga yoʻllagan Murojaatnomasida hayotimizning barcha jabhalari qatori suv resurslari bilan bogʻliq masalalarga ham alohida eʼtibor qaratildi. Chunki bugun obihayot taqchilligi dunyo miqyosida global muammoga aylanmoqda. Koʻplab davlatlarda bu hayotiy ehtiyoj davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan.

Munosabat

Oʻzbekistonda ham suv resurslaridan oqilona foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar va aholini ushbu bebaho neʼmat bilan barqaror taʼminlashga jiddiy eʼtibor qaratilyapti. Uning isrofiga yoʻl qoʻymaslik, suvdan foydalanish madaniyatini oshirish, suv taʼminotini yaxshilash boʻyicha kompleks chora-tadbirlar koʻrilyapti. Birgina 2025-yilda 2 mln. 300 mingga yaqin aholining suv taʼminoti yaxshilandi. 867 ta "ogʻir" mahalladagi 470 mingta xonadonda yashovchilarning tomorqalariga ilk bor suv yetib bordi. Bu xayrli ish aholining tomorqadan olinayotgan daromadini va turmush darajasini oshirishga turtki berdi.

Prezidentimiz Murojaatnomada "Dunyoda suv tanqisligi muammosi tobora dolzarb boʻlib bormoqda. Shu bois islohotlarimizning ilk kunlaridanoq suvdan oqilona foydalanishni davlat siyosati darajasiga olib chiqdik" deya alohida taʼkidlar ekan, sohada amalga

oshiriladigan ishlar, xususan, tejamkor usul va texnologiyalarni faol qoʻllash boʻyicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Davlatimiz rahbarining qarori bilan suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qoʻllash, suv inshootlarini modernizatsiya qilish, sugʻorish tadbirlari boʻyicha kelgusi uch yil uchun qiymati 5,5 mlrd. dollarlik Oʻzbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025 – 2028-yillarga moʻljallangan dasturi tasdiqlandi.

Dastur doirasida suvni tejaydigan texnologiyalar qamrovi 61 foizga yoki 2,6 mln. gektarga yetkazildi. Shundan 604,4 ming gektarda tomchilatib, 122,1 ming gektarda yomgʻirlatib, 73,6 ming gektarda diskret sugʻorish texnologiyalari joriy qilindi.

Yana bir eʼtiborli jihat shundaki, Prezidentimiz Murojaatnomada taʼkidlanganidek, 2026-yilda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish tadbirlariga jami 3,3 trln. soʻm yoʻnaltiriladi. Ana shu mablagʻlar

evaziga keyingi uch yilda suv tejovchi texnologiyalar qoʻllangan maydonlar 3,5 mln. gektardan oshadi. Ushbu saʼy-harakatlar natijasida har yili 2,5 mlrd. kub metr suv resurslari tejalandi. Bu omilkorlik va uning ortidan keladigan samaradorlik mamlakat iqtisodiyotiga nechogʻli ulkan naf keltirishini tasavvurga sigʻdirish oson emas.

Joriy yilda 1,3 ming km. yirik magistral kanallar beton bilan qoplanishi, buning uchun byudjetdan 3 trln. soʻm sarflanishi, qoʻshimcha ravishda yiliga 500 mln. kub metr suv iqtisod qilinishiga ham

boshlanadi. Prezidentimiz ushbu maqsadlarga dastlabki bosqich doirasida bu yil 100 mln. dollar ajratilishini, Qashqadaryodagi "Paxtaobod" kanalini bosimli quvurga oʻtkazish loyihasi bu boradagi birinchi qadam boʻlishini taʼkidladi.

Hyech kinga sir emas, bugun ekologik muammolar, havoning ifloslanishi poytaxt qatori viloyat makazlari va shaharlarni qamrab olmoqda. Bu, oʻz navbatida, aholining haqli eʼtiroziga sabab boʻliyapti. Murojaatnomadan ham hayotiy muammolar yechimi ham oʻrin

"Davlatimiz rahbarining qarori bilan suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qoʻllash, suv inshootlarini modernizatsiya qilish, sugʻorish tadbirlari boʻyicha kelgusi uch yil uchun qiymati 5,5 mlrd. dollarlik Oʻzbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025 – 2028-yillarga moʻljallangan dasturi tasdiqlandi."

Murojaatnomada alohida urgʻu berildi. Tez orada joylardagi ochiq drenaj va kollektorlarni yopiq tizimga oʻtkazish boʻyicha alohida dastur qabul qilindi.

Eʼtiborlisi, kanallarni yopiq tizimga oʻtkazish boʻyicha ham katta loyihalar

olgan. Yashil hududlarni koʻpaytirish, sugʻorish, drenaj tizimlarini qayta tiklash maqsadida Toshkent shahrida 150 km. yopiq drenaj tizimi barpo etiladi, 197 km. kanal va kollektorlar taʼmirlanadi, 63 km. yangi kanallar barpo qilinib,



shaharda salqin mikroiqlim yaratiladi. Shu yoʻnalishdagi ishlar uchun 166 mln. dollar mablagʻ yoʻnaltiriladi.

Bugun raqamlashtirishga asoslangan sunʼiy intellekt tamoyillari hayotimizning barcha jabhasiga jadallik bilan kirib bormoqda. Bu – tizimli ishlash, aniqlik, oʻngʻaylik va tezkorlik, demak. Respublika chegarasida olinayotgan suv miqdorini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi kamida 300 ta, tumanlar chegarasida kamida 1 895 ta raqamli suv oʻlchash qurilmasini oʻrnatish, 2 952 ta meliorativ kuzatuv qudugʻini avtomatlashtirilgan monitoring tizimiga oʻtkazish 2026-yildagi eng muhim vazifalardan. Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand va Sirdaryo viloyatlaridagi nasos stansiyalarining 50 foizi xususiy shirklikka beriladi. Bunda "bir nasos – bir tizim" tamoyili asosida Chortoq tajribasi keng joriy qilinadi.

Prezidentimiz Murojaatnomasida zamonaviy bilimlarga tayangan yetuk mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish masalasi ham eʼtibordan chetda qolmagan. Shundan kelib chiqib, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandisleri instituti" milliy tadqiqot universiteti bazasida suv yoʻjaligi sohasida kompetensiyalar mintaqaviy markazini tashkil etish, 2026-yilning may oyida Oʻzbekistonda Suvni tejash boʻyicha butunjahon forumini oʻtkazish rejalashtirilmoqda.

Albatta, joriy yilda ham koʻp jihatdan oʻzaro chambarchas bogʻlangan qoʻshnilarimiz bilan strategik sheriklik va oʻzaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada mustahkamlaymiz, transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda, oqilona foydalanishni yangi bosqichga koʻtaramiz. Davlatimiz rahbari tomonidan suv resurslari boʻyicha ilgari surilgan tashabbuslar, roʻyobga chiqarilayotgan yirik loyihalar nafaqat yurtimiz, balki Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari farovonligini taʼminlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shavkat HAMROYEV,
Oʻzbekiston Respublikasi suv xoʻjaligi vaziri.

2025 — QUVONCH VA HAYAJONLARGA,
MUVAFFAQIYAT VA ZAFARLARGA BOY YIL

O'tayotgan har yil – tarix kitobining zarhal sahifasi. Bugun xalqimiz ana shu shonli kitobning 2025-yil uchun atalgan zarvarqlarini yopib, 2026-yildagi yangi sahifalarini bezash, yangi mazmun bilan boyitishdek ulkan baxtga musharraf bo'lib turibdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida o'tgan yilga nazar tashlar ekan, qanchalik og'ir bo'lmasin, boshlagan demokratik islohotlarimizni qat'iy davom ettirganimiz, xalqimizning qo'llab-quvvatlashi va yoshlarimizning g'ayrat-shijoati, hamjihatlik asosi bo'lgan mahallaning hayotimizdagi o'rni

va ta'sirini kuchaytirganimiz, odamlarimizning ongi va dunyoqarashini o'zgartirib, el-yurtimizni yanada jipslashtirganimiz, tadbirkor, dehqon va fermerlarimizning tashabbuskorligi va mardona mehnati, o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do'stona tashqi siyosatimiz hisobiga 2025-yilda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishganimizni ta'kidladi.

Haqiqatan ham, o'tgan yil Yangi O'zbekiston uchun quvonchlarga, zafarlarga boy bo'ldi. Ushbu davrni yaxlit polotno sifatida ko'z oldimizga keltirsak, undagi manzaralar – inson qadrini ulug'lashga qaratilgan betimsol ishlar, ulkan bunyodkorliklar, Vatanimizning

dunyo sahnida o'z o'rniga ega bo'lib borayotgani nigohlarimiz oldida yorqin bo'yoqlar bilan namoyon bo'ladi.

Mazkur islohotlarning ishtirokchilari ertayu kech izlanishdan to'xtamay, jonkuyarlik, matonat ko'rsatib mehnat qilayotgan insonlar, shaksizki, bugungi dorilamon kunlarning, nurli kelajakning bunyodkorlaridir.

Quyidagi ana shu qaynoq jarayonlarning zahmatkashlari, fidoyilari bo'lgan ayrim yurtdoshlarimizning dil so'zlari, fikr-mulohazalari gazetxonlarga taqdim etilmoqda.

Oila osoyishtaligidan
ortiq baxt yo'q

Ilyosbek NO'MONOV,
tadbirkor
(Farg'ona tumani):

– Farg'ona tumanining “Boymahalla” MFYda har bir oila qatori biz ham tinchlik, farovonlik ne'matlaridan bahramand bo'lib yashamoqdami. O'tgan yilda hayot bizning oiladan eng totli ne'matlarini ayamadi. Boisi tadbirkor sifatida Xitoy va Yaponiya investorlari bilan hamkorlikda quyosh panellari o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish sohasida quvonarli yutuqlarga erishdik. 10 ta doimiy hamda 30 ta mavsumiy ish o'rni yaratib, davlatimiz g'aznasiga salkam 500 million so'm soliq to'laganimizdan tadbirkor sifatida behad mamnunman.

Shuningdek, innovatsiya sifatida tadbirkorlik subyektlariga muqobil isitish stansiyalari o'rnatib berishni yo'lga qo'ydik. Yangi texnologiya energiya tejamlar ko'lib, tabiat va ekologiyaga umuman zarar yetkazmaydi. Davlatimiz rahbarining yaqinda Yaponiyaga amalga oshirgan tashrifi samarasi sifatida Kunchiqar yurt tadbirkorlari bilan bu boradagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga kelishib olindi.

2025-yilda oilamiz



O'zbekiston mahallalari uyushmasi tomonidan o'tkazilgan ko'rik-tanlovning “Eng yaxshi xonadon” nominatsiyasida tuman, viloyat bosqichi g'olibi bo'ldi va respublika bosqichida ishtirok etdi. Mamlakatimizdagi olti milliondan ziyod xonadonlar o'rtasida g'oliblik uchun asosiy da'vogar bo'lganimiz ortda qolgan yilning eng unutilmas voqealaridan biri bo'ldi, deyish mumkin.

Maktabda o'qiyotgan ikki qizimiz – Xonzodabegim va Marjona ingliz, rus va koreys tillarini o'rganish bo'yicha quvonarli yutuqlarga erishishdi. To'rt yoshli kenjayimiz Muhammadshoh zamonaviy bog'chaga qatnab, bir necha tillarda so'zlashishni o'rganmoqda.

Insonga oila osoyishtaligidan ortiq baxt yo'q. Shu ma'noda, yangi yilda yurtimizdagi har bir oilaning baxti to'kis bo'lishiga tilakdoshmiz.

O'tayotgan vaqt besamar ketmadi

Rashida KIRICHENKO,
“Andijon suv ta'minoti” AJ xodimi,
«Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish a'lochisi» ko'krak nishoni sohibi:

– Suv ta'minoti korxonasida 54 yildan buyon mehnat qilib kelayotgan oddiy ayolman. Yangi ish boshlagan kezlrim dunyoga kelgan farzandlar bugun keksalik gashti sari qadam tashladi. Shu bois dilbandlarim: “Ona, ishlab nima qilasiz? Sizga nima yetishmayapti o'zi?” deydi. Men esa: “Hozir hamma narsam yetarli, biroq ishdan bo'shagan kunim hammasidan – jamoamdan, jamiyatdagi faol ishtirokimdan, el-yurt yo'lidagi fidokorona xizmatlarimdan

ayrilaman”, deyman. Toki tanda kuchim bor ekan, ishlashim, menga oltin beshik bo'lgan Vatanga, boshimni silab voyaga yetkazgan xalqimga xizmat qilishim kerak.

Bir necha kun avval davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasini tinglab, kuchimga kuch qo'shildi. Prezidentimiz o'z nutqida o'tgan yil yurtimizdagi 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib borganini ta'kidladi. Bu kabi xayrli ishda mening ham kamtarona xizmatim borligidan faxrlanaman. Zero, ortda qolgan yilda jamoamiz bilan astoydil mehnat qildik.



Qalblarni isitgan «Gulxaniy tog'a»

Shamsiddin OMONOV,
Namangan tumani
tibbiyot birlashmasi
markaziy isitish
qozonxonasi operatori:

– Haydovchilikdan nafaqaga chiqqandan keyin ko'nglim tinchroq joyni ko'zlab qoldi. O'zim uzoq vaqt mehnat qilgan va qadrdon bo'lib qolgan tibbiyot birlashmasidagi isitish qozonxonasiga o't yovquvchi bo'lib ishga kirdim. Bir qarashda kingadir bu yumush “qora ishdan” tuyuladi. Nazar-pisand qilmaydiganlar ham bor. Ammo men unga tezda tibbiyot birlashmasiga qarashli o'ndan

o'ylagandek og'ir emas. Olovni “aqli” qozonlarga qalaymiz, ko'mirni vaqti-vaqti bilan tashlab tursak, bas, avtomat sozlagich zarur haroratni me'yorida ushlaydi.

Bu yerga kelganimga sakkiz yildan oshdi. Atrofdagilar mehnatimni qadrlaydi. Yaqinlarim esa menga suyib “Gulxaniy tog'a” deb murojaat qiladi, bu juda yoqimli.

Aslida, kasb-hunarning yaxshi-yomonini bo'lmaydi. Muhimi, jamiyatga nafing tegsin-da! To'rt oylik isitish avsumida tibbiyot birlashmasiga qarashli o'ndan



ortiq bo'limlarning xonalarida zarur haroratni ta'minlaydigan 9 ta qozonxonani yuritamiz. Buning uchun sheriklarim bilan har kuni 2,5-3 tonna atrofida ko'mirni o'xonaqa tashlashimiz zarur. Ishimizning uddasidan chiqayotganimiz uchun barcha xonalar birdek issiq. Garchi, har

uch kunda ishga chiqsam-da, ko'pincha bayram kunlariga to'g'ri keladi.

Yangi yil arafasida ham ishga chiqdim. Tug'aylashgan pallada ikki nevaram tugunchada kechki ovqat bilan kirib keldi. Endi dasturxon yozgan edimki, xona eshigi yana taqilladi. Ochsam, bosh shifokorimizning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari Sayfidin Jo'rayev. Qo'lida kattagina xaltacha.

“Shifoxonani aylanib chiqdim, hammasi joyida, Gulxaniy tog'a”, – dedi u. – Mana bu esa nevaralarimga bayramlik”.

Kutilmagan tuhfadani dilbandlarimning yuzlariga tabassum yugurdi.

Bayramni yangi uyda kutib oldik

Malika AVEZBAYEVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat
universiteti talabasi (Bo'zatov tumani):

– Hayotning eng og'ir sinovlarini juda erta boshdan kechirdim. Ya'ni 3 yoshimda otamandan ayrildim. Bolalik vaqtim ota-onam mehri, iltifot bilan emas, yo'qchilik, sog'inch va qiyinchiliklar bilan o'tdi.

Kechalari o'z-o'zimga savol berardim: nega menda boshqalar singari o'z uyim, ota-onam quchog'idagi bolaligim bo'lmadi?! Lekin bu og'ir damlar meni ruhan sindirolmadi. Aksincha, meni kuchli bo'lishga o'rgatdi.

Yoshligimdan orzuim: o'z uyimga ega bo'lish, maktabda o'qib, bilimni insonga aylanish, oilam bilan tinch, baxtli hayot kechirish edi. Uzoq yillar davomida bu orzular juda o'lsada, xuddi ushalmas armondek tuyulardi...

Biroq 2025-yil hayotimda o'sha orzularimga erishadigan yil bo'ldi. Prezidentimizning

insonparvarlikka asoslangan siyosati, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga ko'rsatilayotgan ulkan e'tibor natijasida menga Bo'zatov tumani markazidagi ko'p qavatli turarjoylardan 2 xonali uy berildi. Shuningdek, Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetiga imtiyozli – davlat granti asosida o'qishga qabul qilindim.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyili mening hayotim hissolida yana bir bor namoyon bo'ldi. Bolaligimda yetmagan mehnat va ishonchni bugun davlat g'amxo'rliqi orqali his qilayman. Bu menga yanada yaxshi o'qib, el-yurtga foydasi tegadigan, bilimni va mas'uliyatli mutaxassis bo'lib yetishishimga kuch beradi.



E'tibor g'alabaga undaydi

Bahridin XOLBO'TAYEV,
Yoshlar Paraosiyo o'yinlari g'olibi
(Suxondaryo viloyati):

– Ba'zan bir g'alaba minglab qalblarga umid bag'ishlaydi. Ayniqsa, bu g'alaba Prezident e'tibori, ishonch va qo'llab-quvvatlashining samarasi bo'lsa, uning qadri yanada baland bo'ladi. 7 – 14-dekabr kunlari Dubayda bo'lib o'tgan V Paraosiyo o'yinlari ana shunday g'ururli va unutilmas tarixga aylandi.

Musobaqada O'zbekiston yosh parasportchilari yuksak natijalarga erishdi – 99 ta oltin, 57 ta kumush, 41 ta bronza medal bilan umumjamoa hisobida Osiyo qit'asida 1-o'rinni egalladi. Bu – yurtimizda parasportga berilayotgan yuksak e'tiborning yaqqol ifodasi.

Qiziriq tumandagi Qishloqozon mahallasida voyaga yetdim. Hozirda Qishloq xo'jaligi politexnikumi o'quvchisiman. Katta sportga 2023-yilda qadam qo'ydim. Shu qisqa fursatda mamlakat chempionatida g'olib

bo'lish, keyin esa ilk xalqaro musobaqada qatnashish nasib etdi. Dubay arenasini men uchun nafaqat xalqaro sinov, balki iroda, sabr va ishonchimni charxlagan maktab bo'ldi.

Para pauerlifting bo'yicha 54 kilogramm vazn toifasida Osiyo va jahon rekordini yangiladim. Bu natija ortida maqsad va matonat bilan birga, eng muhimi, qo'llab-quvvatlash bor.

“Toshkent-Humo” xalqaro aeroportidagi tantanali kutib olish marosimi, Prezidentimizning otalarcha mehri biz, yosh sportchilar uchun katta rag'bat bo'ldi. Mahallamdagi odamlarning “ana chempion”, “ana rekordchi” deya faxr bilan kutib olishi esa yanada ko'proq g'alabalarga undamoqda. Yangi yilda ham xalqimizga yangidan-yangi yutuqlarni tortiq qilamiz, degan umiddaman.

Xursandchiliklarni sanasam,
barmoqlarim yetmaydi

Husanboy G'AFUROV
(Oltiariq tumani):

– Tomorqasida 30 ga yaqin navlarni parvarishlab, ishkomlar ostida intensiv usulda olma, shaftoli, olxo'ri, gilos, o'rikdan ham mo'l hosil yetishtiramiz. Hozirgi kunda xorijdan olib kelingan danaksiz va serhosil 10 ga yaqin uzum navlari bo'yicha ilmiy-amaliy tajribalarimiz davom etmoqda.

Uzumni ishkomdan uzmay va xonadondagi omborxonada tabiiy usulda keyingi yil hosili

pishguncha saqlaymiz. Bu tajriba mamlakat miqyosida ommalashmoqda, hovlimizga yurtimizning barcha viloyatlari va hatto uzoq-yaqin xorijdan ham shu sohaga qiziqqan mirishkorlar, sayyohlar kelib turadi.

O'tgan yilda oilamiz uchun esda qolarli xursandchiliklarni sanasam, barmoqlarim yetmaydi. O'g'lim Husanboy va nabiram Abdulaziz oliy ta'limni tamomlagan bo'lsa, ikki nabiram – Husanboy

va Sarvinoz universitetga o'qishga kirdi. Nabiralaram Abdulboqiy va Abdulloh poytaxtimizda o'tkazilgan sport musobaqalarida g'olib bo'lib, shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

Quvonarlisi, Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni arafasida davlatimiz rahbari Farmoniga ko'ra, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandim. Bu uzumchilik sohasidagi 50 yillik mehnatimning yuksak e'tirofidir.



Yaqinda Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasini tinglab, besh nafar farzandning otasi va o'nlab nabiralalar bobosi sifatida yurtimizning ertangi kun istiqbolidan yanada quvondim. Ishonamizki, jonajon O'zbekiston uchun Yangi yil yanada barakali bo'ladi.

«Xalq so'zi».

Otamning orzusi amalga oshdi

Jasmina TURSUNALIYEVA,
Pensilvaniya universiteti talabasi, “El-yurt umidi”
jang'armasi stipendiyati (Sirdaryo viloyati):

– Oqolfin tumandagi oddiy oila farzandiman. Onam tumanimizdagi oshxonalaridan birida oshpaz bo'lib ishlaydi. Dadam og'ir xastalikdan so'ng bundan uch yil avval vafot etdi. Murg'akkina yuragim bu ulkan judolikka ko'ndi, tezda o'zimni qo'lga oldim va otamning orzusini amalga oshirishni oliy maqsadga aylantirdim. U kishi “Jasmina qizim kelajakda zo'r mutaxassis – diplomat, siyosatshunos bo'ladi”, deb niyat qilardi.

Halima Xudoyberdiyeva

nomidagi ijod maktabiga qadam qo'yganimda o'zimni yangidan kashf etdim. Maktabdagi barcha muallimlarim hayotda o'z yo'limni topishda yo'l-yo'riq ko'rsatdi. “IELTS”, “SAT” sertifikatlari va bir necha xorijiy universitetlardan qabul xatlarini qo'lga kiritishim esa o'qib-o'rganishlarim hamda ustozlarim mehnatining natijasi bo'ldi. Men oliy ta'lim olish uchun AQShning Pensilvaniya universitetini tanladim. U dunyodagi “TOP – 100” talikka kiruvchi universitetlardan

biri. Ishonchim komilki, men u yerda dunyoqarashimni oshirish va innovatsion g'oyalarni Vatanimizga olib kirish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega bo'laman. Qolaversa, o'qish davomida milliy qadriyatlarimizni, betakror an'analarni ta'minlay qillaman.

Shuni mamnuniyat bilan aytamanki, yakunlangan yilda hayot daftarim yana bir unutilmas sahifa bilan boyidi. Ya'ni davlatimiz rahbarining viloyatimizga tashrifidagi yig'ilishda so'zga chiqdim. Yangi O'zbekistonda yaratilgan cheksiz imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan



yoshlardan biri ekanimni, Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi hayotimda katta burilish yasagani, xalqaro forumlar va tanlovlarda qatnashib, sertifikatlarni qo'lga kiritgan haqida gapirdim. Pensilvaniya universitetiga qabul qilganimni va “El-yurt umidi” jamg'armasi stipendiyati bo'lganimni cheksiz minnatdoriy va faxr-iftixor bilan ma'lum qildim.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqab. O'set usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umalligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilid hunda operator M. Begmatov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir A. Aliqulov.
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.10 Topshirildi — 22.10

1 2 3 4 5 6